# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra*
*(fermer  va dehqon xo‘jaliklaridan  tashqari)*

(Davlat xizmatlari markazlari ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar** — 36 235 — 106,3 %

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar** — 34 502 — 104,5 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yilda)** — 2 413 — 84,3 %

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*

**22 062**
Mas’uliyati cheklangan jamiyat

**1 258**
Oilaviy korxona

**142**
Unitar korxona

**6 232**
Xususiy korxona

**21**
Aksiyadorlik jamiyati

**431**
Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2022- yil yanvar-may oylarida, birlikda )*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(yanvar-may oylarida)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*

**31 537** ro‘yxatdan o‘tgan
- **1 567** kichik korxonalar
- **29 970** mikrofirmalar

**29 965** faoliyat ko‘rsatayotgan
- **1 547** kichik korxonalar
- **28 418** mikrofirmalar

**2 306** 2022- yilda yangi tashkil etilgan
- **23** kichik korxonalar
- **2 283** mikrofirmalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyun holatiga ko‘ra 1 318 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 173 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 258 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 150 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 153 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 31 taga yoki 83,2 foizni tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- iyun holatiga ko‘ra 23 229 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3 053 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 062 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 409 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 021 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 162 taga yoki 92,6 foizni tashkil etganini ko‘rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra 308 tani tashkil etib, ulardan 298 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 28 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga yoki 1,3 martaga oshgan.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyun holatiga, birlikda)*



# Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **104** | 85 | 19 |
| **Qozog‘iston Respublikasi** | **22** | 15 | 7 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **69** | 43 | 26 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **14** | 11 | 3 |
| **Tojikiston Respublikasi** | **15** | 12 | 3 |
| **Turkiya Respublikasi** | **70** | 40 | 30 |
| **Hindiston Respublikasi** | **18** | 10 | 8 |
| **Janubiy Koreya Respublikasi** | **41** | 27 | 14 |
| **Singapur Respublikasi** | **4** | 2 | 2 |
| **Eron Islom Respublikasi** | **6** | 3 | 3 |

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Namangan viloyati** | **298** | **180** | **118** |
| **Namangan shahri** | **98** | 54 | 44 |
| **Mingbuloq** | **7** | 2 | 5 |
| **Kosonsoy** | **31** | 22 | 9 |
| **Namangan** | **20** | 17 | 3 |
| **Norin** | **12** | 7 | 5 |
| **Pop** | **27** | 17 | 10 |
| **To‘raqo‘rg‘on** | **14** | 8 | 6 |
| **Uychi** | **17** | 13 | 4 |
| **Uchqo‘rg‘on** | **11** | 6 | 5 |
| **Chortoq** | **25** | 14 | 11 |
| **Chust** | **23** | 13 | 10 |
| **Yangiqo‘rg‘on** | **13** | 7 | 6 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 98 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 32,9 %), Kosonsoy 31 ta (10,4 %), Pop 27 ta (9,1 %), Chortoq 25 ta (8,4 %), Chust 23 ta (7,7 %), Namangan 20 ta (6,7 %) ni tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil 1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri 33,1 %), Chust (8,0 %), Namangan, Uychi (6,7 % dan), Pop (6,3 %), To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy (6,2 %dan), Uchqo‘rg‘on (6,1%), Chortoq (6,0 %), Yangiqo‘rg‘on (5,3 %), Norin (5,0 %) hamda Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil yanvar-may oylarida, birlikda)*

2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (33,1 %), Chust (8,1 %), Chortoq (7,2 %), Uchqo‘rg‘on (7,0 %), Yangiqo‘rg‘on (6,8 %), Uychi (6,7 %), Norin (6,4 %), To‘raqo‘rg‘on (6,2 %), Namangan (5,8 %), Kosonsoy (5,2 %), Pop (4,6 %) hamda Mingbuloq (2,9 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.



## Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*






## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yil 1-iyun holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,5 %), Uychi (7,1 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,5 %), Kosonsoy (6,3 %), Namangan (6,2 %), Chust (5,7 %), Uchqo‘rg‘on (5,5 %), Yangiqo‘rg‘on (5,4 %), Norin (5,3 %), To‘raqo‘rg‘on (5,1 %), Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*




2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitstiyalarni jalb etish strategiyasini amalga amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo‘yicha soni



*(2022- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)*




2022- yilning yanvar-may oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan shahri (40,4 %), Yangiqo‘rg‘on (15,0 %), To‘raqo‘rg‘on (13,7 %), Namangan va Chortoq (5,9 %dan), Chust, Mingbuloq, Norin (3,3 %dan), Kosonsoy, Pop (2,6 %dan), Uychi, Uchqo‘rg‘on (2,0 %dan) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2022- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)*






## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyati Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.:69-227-84-96**